



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI
XORIJIY TILLAR KAFEDRASI**

**“RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XORIJIY
TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman



“RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2025-yil 22-yanvar kuni Oliy ta’lim va ilm-fan sohasida 2025-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan taqdimotda hamda Namangan davlat pedagogika instituti rektorining 2026-yil 29-yanvardagi 12-U-sonli buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’limlash maqsadida Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti Xorijiy tillar kafedrası tomonidan 2026-yil 27-mart kuni **“Raqamli transformatsiya sharoitida xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilmoqda.

Anjumanning maqsadi — raqamli transformatsiya sharoitida xorijiy tillarni o‘qitishning nazariy-konseptual asoslarini tadqiq etish, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali integratsiya qilish masalalarini ilmiy tahlil qilish, xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy metod va yondashuvlarning amaliy samaradorligini baholash, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy vazifalar:

- raqamli transformatsiya sharoitida xorijiy tillarni o‘qitishning nazariy-metodologik asoslarini kompleks ilmiy tahlil qilish;
- xorijiy tillarni o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan, raqamli pedagogika va zamonaviy didaktik tamoyillarga asoslangan samarali innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish;
- ta’lim jarayoniga sun‘iy intellekt, raqamli platformalar, masofaviy va gibridd ta’lim texnologiyalarini tizimli ravishda tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish;
- yosh olimlar va tadqiqotchilarning xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi hamda raqamli ta’lim sohasidagi ilmiy salohiyatini rivojlantirish, ularning xalqaro ilmiy hamkorlikdagi ishtirokini kengaytirish.

Konferensiyaga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar qabul qilinadi:

1-sho‘ba. Ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida akomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari.

2-sho‘ba. Filologik ta’limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlarining lingvodidaktik salohiyati.

3-sho‘ba. Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar samaradorligi.

4-sho‘ba. Globallashtirish sharoitida raqamli texnologiyalarning ijtimoiy-madaniy va kommunikativ ahamiyati.

Maqolalar quyidagi talablarga javob berishi shart:

- maqolalar konferensiya yo'nalishlariga oid dolzarb mavzularda, ilmiy tahlil va tugallangan fikrlar asosida, amaliy tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim; word matn redaktorida Times New Roman 14 pt o'lchamli shrifti bilan 1,5 intervalda, qog'oz o'lchovi A4 210x197 mm; matn maydoni yuqoridan va pastdan 2 sm, o'ngdan 1,5 sm, chapdan 3 sm;
- maqola mavzusi bosh harflarda va qoraytirilgan holda yozilishi, keyingi qatordan muallifning ismi, familiyasi va sharifi, ish joyi, lavozimi va telefon raqami ko'rsatiladi;
- maqola annotatsiyasi va kalit so'zlar (kamida 7 ta) 3 tilda (o'zbek, rus, ingliz) berilishi shart;
- foydalanilgan adabiyotlar kamida 3-4 ta nomdagi adabiyotni tashkil etishi zarur;
- maqolaga havola (snoska)lar [1,2...] ko'rinishida va maqola so'ngida "Foydalanilgan adabiyotlar" bandiga adabiyot sifatida ketma-ketlikda, tartib bilan havola raqami ko'rsatilishi kerak;
- maqoladagi ma'lumot va dalillarning aniqligi, to'g'riligi va ko'chirmakashlikka yo'l qo'yilmaganligiga muallif javobgardir;
- mavzuga tegishli bo'lmagan, tahrir qilinmagan hamda imlo xatolari bilan taqdim etilgan maqolalar ilmiy to'plamga kiritilmaydi;
- maqolalarga o'zbek, rus va ingliz tillarida annotatsiya va kalit so'zlar bo'lishi lozim;
- maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi.

Maqolalar Google Scholar bazalarida to'liq indekslanadi.

Eslatma: maqola uchun badal to'lovi 80 000 so'mni tashkil etadi. Ilmiy maqolalar 2026-yil 26-martga qadar qabul qilinadi.

Koordinatorlar: NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti Xorijiy tillar kafedrasini mudiri, PhD Dadabayev Zafar Zakirovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Ubaydullayev Shuhrat Narzullayevich, katta o'qituvchi Dexkonova Guljaxon Axmadjanovna.

Ilmiy maqolalar quyidagi manzilda qabul qilinadi.

Telefon raqam: +998940140413 (telegram orqali)

Telegram orqali: https://t.me/Namdpi_anjumani

Manzil: Namangan davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar fakulteti, 3-qavat Xorijiy tillar kafedrasini.